

## O'QUVCHILARINI MA'NAVYI BARKAMOL INSON RUHIDA TARBIYALASHDA ERTAKLARDAN FOYDALANISH

**Tilavova Minavar Durdiyevna**

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

**Erkinova Navbahor**

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6877770>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada maktab o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalashda ertaklarning o'rni hususida so'z yuritiladi. Mualliflar tomonidan 3-4 sinflar misolida ertaklarda qo'llaniladigan tasviriy vositalar tahlili keltirilgan.

*Kalit so'zlar:* folklor, fantastik sarguzasht, syujet, obrazli ifoda, tasviriy vosita.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СКАЗОК ДЛЯ ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ДУХЕ ДУХОВНО ЗРЕЛОГО ЧЕЛОВЕКА

*Аннотация.* В данной статье говорится о роли сказки в воспитании школьников в духовно совершенном человеческом духе. Авторы представляют анализ изобразительных средств, используемых в сказках на примере 3-4 классов.

*Ключевые слова:* фольклор, фантастическое приключение, сюжет, образное выражение, изобразительное средство.

## USING FAIRY TALES TO EDUCATE STUDENTS IN THE SPIRIT OF A SPIRITUALLY MATURE PERSON

*Abstract.* This article talks about the role of a fairy tale in educating schoolchildren in a spiritually perfect human spirit. The authors present an analysis of the visual means used in fairy tales using the example of grades 3-4.

*Keywords:* folklore, fantastic adventure, plot, figurative expression, visual means.

### KIRISH

Ertak folklorning eng keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lib, ularda kishilar hayotida uchraydigan oddiy hodisalar va fantastik sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri fantastik elementlar bilan qo'shilib ketadi.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish darslarida ertak bilan amaliy tanishtiriladi.

Ertakning o'tkir maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda, ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi; undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, undagi ezgu kuchning – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qabul qilingan hikoya qilish formasi, bir xil so'z va iboralarning qayta-qayta takrorlanib turishi, ohangdorligi, tilining ta'sirchanligi, ifodali vositalarining jonliligi bolalar uchun juda qiziqarlidir. Ertakda qatnashuvchilar ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z obrazlarga bo'linadi.

### TADQIQOT NATIJALARI

Ertaklar tilining poyetik bo'yoqdorligini bolalarga o'rgatishni 1-sinfdanoq sodda misollar bilan boshlagan holda uni chuqurroq tushuntirishni 3-4-sinflarga mo'ljallash lozim.

Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi" dan o'rin olgan "O'jar baliqcha ertagi" "Bir bor ekan, bir yo'q ekan, katta moviy dengizda tanga baliq bolalari bilan yashar ekan...", (133-bet) tarzida boshlanadi. Bu jumlada dengizning rangi ko'k emas, balki moviy shaklda beriladi, Aslida moviy

soʻzi ham koʻk rangini bildiradi. Arab tilidan oʻzlashgan” moviy” soʻzi sifatlash boʻlib qoʻllangan.

Ertak janriga xos asosiy badiiy vositalardan biri unda mubolagʻaning koʻp ishlatilishidir. ”Ochkoʻz boy” ertagida oʻrdak tashlab ketgan urugʻdan paydo boʻlgan tarvuz haqida shunday mubolagʻali tasvir berilgan: “Bir haftada qulochga yetmaydigan tarvuz boʻlibdi. U kun sayin emas, soat sayin oʻsibdi” (65-bet)

“Hunarsiz kishi oʻlimga yaqin” ertagida esa “Podshohning ilgarigi dardiga yana ming dard qoʻshilibdi” (69-bet).

“Baqa bilan taqa” ertagida: ”Oyogʻidan oʻt chaqnar edi” (90-bet).

### **MUHOKAMA**

Bunday mubolagʻali tasvirlarni har bir ertakning tahlili jarayonini oʻsha asar voqealariga bogʻlab tushuntirish, ularning voqealarini boʻrttirib, eshituvchilarga taʼsir koʻrsatish, emotsional tuygʻu uygʻotish uchun ishlatilganligini aytib oʻtish lozim.

Ertakning pedagogik qimmatini shundan iboratki, bolalar unda toʻgʻrilik, halollik gʻalaba qilganidan, kishilar qiyinchilikdan qutulganidan, yaʼni yaxshilik, ezgulik roʻyobga chiqqanidan va yomonlik, yozuvlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doim shunday boʻlishini istaydilar. Ertak bolalarda personajlarning xatti-harakatini muhokama qilib baholash koʻnikmasini oʻstiradi.

### **XULOSA**

Boshlangʻich taʼlim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga koʻtaradigan ijodkor shaxsni yaratishda mustahkam poydevor rolini oʻynaydi. Bunda boshlangʻich sinf oʻquvchilarini maʼnaviy barkamol inson qilib tarbiyalashdagi muhim vazifalarning asosiy qismi oʻqish darslarida amalga oshiriladi.

### **REFERENCES**

1. Matchonov S., Shojalilov A. va boshqalar. Oʻqish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent, “Yangiyoʻl Poligraf servis”, 2015.
2. Qosimova K., Matchonov S., Gulomova X., Yoʻldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. -Toshkent, «Nosir», 2009.